



O'RTA UMUMIY TA'LIMNING IKKINCHI BO'G'INIDA O'ZBEK TILI(DAVLAT TILI)NI O'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Ixtiyorbek Norov

*Nukus davlat pedagogika
instituti O'zbek tili kafedrası
fan kabineti mudiri*

Annotatsiya: Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning ikkinchi bo'g'inida "O'zbek tili" o'quv fanini o'qitishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad o'quvchilarni qoraqalpoq tili bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining davlat tili - o'zbek tilida muloqot qilish, ish yuritishga tayyorlashdir.

Kalit so'zlar: ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablar, o'zbek tili, maqsad, ish yuritish.

Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning ikkinchi bo'g'inida davlat tili - o'zbek tilining o'qitilishi juda katta ijtimoiy, ma'naviy ahamiyatga molik masalalardan biri sanaladi. Uning ijtimoiy, ma'naviy ahamiyati shundaki, o'zbek tilini bilgan qoraqalpoq o'quvchisi ertangi mustaqil turmushga dadil qadam tashlaydi, ayni vaqtda muloqot chegarasi kengayadi; jamiyatda o'zining munosib o'rnini egallaydi, uning ma'naviy olami kengayadi. U nafaqat qoraqalpoq xalqining o'tmishi, urf-odatlarini, an'analari, badiiy adabiyoti namunalari bilan tanishadi, balki o'zbek xalqi, uning boy tarixiy o'tmishi, badiiy adabiyotini ham bilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Natijada, har ikki qardosh xalqning do'stlik rishtalari mustahkamroq bog'lanadi, ularning o'tmishi, urf-odatlarini, an'analari orasida juda ko'p mushtarakliklar va o'ziga xosliklar borligini bilib oladi. Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarning ikkinchi bo'g'inida "O'zbek tili" o'quv fanini o'qitishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad o'quvchilarni qoraqalpoq tili bilan bir qatorda O'zbekiston Respublikasining davlat tili - o'zbek tilida muloqot qilish, ish yuritishga tayyorlashdir.

5-sinfda o'zbek tilidan o'quvchilarga beriladigan zaruriy bilimlar boshlang'ich sinflarda shu o'quv fanidan egallangan bilimlarning mantiqiy davomidir. Bu sinfda o'zbek tili ta'limining samaradorligi ko'p jihatdan o'quvchilarning yosh xususiyatlari va shaxsiy-psixik xususiyatlarini hisobga olish bilan bog'liq.

Ma'lumki, 5-sinf o'quvchilari 11-12 yoshli bolalar bo'lib, bu davr kichik maktab yoshidan o'rta maktab yoshiga o'tish bilan xarakterlanadi. 5-sinfda o'quv fanlarining ko'payishi, axborotlar tarmog'ining kengayishi ularning fikr yuritishini ancha jadallashtiradi. "Kichik maktab yoshidagi bolalarda, - deb qayd qiladi E.Qoziev, - endigina rivojlanish bosqichiga ko'tarilgan intellekt o'smirlik davrida yanada takomillashadi. Ta'lim jarayonida ular materiallarni tahlil qilish, muammoning mohiyatini tushunish jadal sur'atlar bilan o'sadi.(112,148)



5-sinf o'smirlik davrining boshlanishi bo'lib, avvalo, ularda mavhum tafakkur birmuncha shakllanadi. Agar boshlang'ich sinflarda o'quvchilar o'zlari ko'rgan, eshitgan, kuzatgan narsa-hodisalar xususida fikrlasalar, 5-sinfga etganda, bevosita ko'rmagan, kuzatmagan narsa-hodisalar xususida ham fikrlay oladilar. O'smirlik davrining ilk bosqichida o'quvchilar "O'zbek tili" o'quv fanining o'qitilishidan ko'zlanadigan maqsadni teran anglaydilar. Shu sababli, bu davrda o'zbek tilini o'rganishga bo'lgan qiziqish ancha ortadi. Ular bu o'quv fanini o'rganish natijasida muloqot ko'lami kengayishini, o'zbek tilida ish yuritish imkoniyatlari yuzaga kelishini tushunadilar.

5-sinf o'quvchilarining eng muhim xususiyatlaridan yana biri bu yoshdagi bolalarda mustaqil ishlay olish darajasining anchagina tarkib topganligidir. Ular boshlang'ich sinflarda mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatishda ancha qiynalsalar, bu davrga kelib, mustaqil ishlay olish malakalari birmuncha takomillashadi. Natijada o'quvchilarda nafaqat qayta xotirlashga asoslangan topshiriqlarni, balki qisman ijodiy va ijodiy topshiriqlarni, mustaqil bajarishga bo'lgan xohish va intilish ancha ortadi. Shuning uchun o'smirlik davrining bu bosqichi o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarida ham ma'lum o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. Eng muhimi, bilimlarni tayyor holda bayon qilish, o'quv materialini so'zlab berish ham o'quvchilarni ancha zeriktiradi. Shunday ekan, 5-sinfda o'quvchilarga beriladigan o'quv topshiriqlarining amaliy yo'nalishda ekanligini nazarda tutib, fikrlash, ijodiy izlanishga e'tibor kuchaytiriladi.

5-sinf o'quvchilarida shaxsiy psixik xususiyatlar ham ancha rivojlanadi. Ularda til hodisalarini kuzatish, ularni qiyoslash, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, guruhlash, umumlashtirish singari aqliy faoliyat usullarini bajarish imkoniyatlari kengayadi (34,24). Chunki ularda ijodiy xayol boshlang'ich sinflarga qaraganda ancha rivojlangan bo'ladi. Ayniqsa, bu yoshdagi o'quvchilarda qayta tiklovchi xayol yuksak darajada ko'rina boshlaydi. Ular o'zbek tili mashg'ulotlarida o'rganilayotgan til hodisasi talabiga muvofiq misollar tanlashda, ma'lum bir guruhdagi so'zlarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlashda sezilarli qiyinchiliklarga duch kelmaydilar. O'zbek tili darslarida o'quvchilarning bilish faoliyati ancha ortadi qamda ularning real o'quv imkoniyatlari kengayadi.

Ma'lumki, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, qobiliyati bir-biridan farq qiladi. O'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan, ijodiy fikrlay oladigan o'quvchi rasm asosida matn yaratish kerak bo'lganda faqat rasmda kuzatayotgan narsalarnigina emas, balki o'zining hayotiy taassurotlarini ham unga qo'sha oladi. O'zlashtirish darajasi va fikrlash qobiliyati bo'sh bo'lgan, til sezgirligi talab darajasida bo'lmagan o'quvchi



xuddi shu matnda, hatto rasmda ko'rayotgan narsalarini ham to'laligicha bayon qilib bera olmaydi. Demak, o'quvchilarning real o'quv imkoniyati har xil bo'lib, u o'quvchilarning o'rganish darajasiga ta'sir etadi. Shuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchining real o'quv imkoniyatini aniqlashi va ta'lim ishini shunga asoslangan holda uyushtirishga harakat qilishi lozim. (120,27)

Real o'quv imkoniyati yuqori bo'lgan o'quvchilar o'quv materialini o'zlashtiribgina qolmay, uni amaliy faoliyatda ham qo'llay oladilar. 5-sinfda o'quvchilarning qoraqalpoqcha matnlarni o'qib, mazmunini o'zbek tilida so'zlab berish, o'zbekcha matnlarni o'qib, uning mazmunini o'z so'zlari bilan qayta hikoya qilish, rasimga qarab hikoya tuzish, bir matnga bir necha sarlavha topish, she'riy parchalar mazmunini nasriy usulda bayon qilish, muayyan bir mavzuda suhbat matni tuzish singari malakalari ancha rivojlanadi. O'quvchilarning real o'quv imkoniyatini oshirganimiz sari ta'limning samaradorligi ham ortib boradi.

Ta'lim qoraqalpoq tilida olib boriladigan maktablarda o'zbek tilini o'qitishning umumiy va xususiy maqsadlari bor. Umumiy maqsad – qoraqalpoq o'quvchilarini o'zbek tilida muloqot qilishga, davlat tilida ish yuritishga tayyorlashdir. (84) Xususiy maqsad esa muayyan bir sinf doirasida belgilanadi. Masalan, boshlang'ich sinflarda "O'zbek tili"ni o'quv fani sifatida o'qitish o'quvchilarni tovush va harf, leksika, grammatika, imlo, gapda so'zlarni grammatik jihatdan aloqaga kiritish, kichik, bolalarbop nasriy va nazmiy asarlarni ifodali o'qiy olish, ularning mazmunini o'z so'zlari bilan qayta hikoyalash singarilarda namoyon bo'lsa, 5-sinfda bu maqsad bir qadar o'zgacha mazmun kasb etadi.

5-sinfda "O'zbek tili" o'quv fanini o'qitishdan ko'zlangan xususiy maqsad sintaksis va punktuatsiya, nutq tovushlari(harflari)ning talaffuzi (imlosi), so'z va uning ma'nolari xususida o'quvchilarga ma'lumot berish, nutqiy faoliyatda ulardan foydalanishga o'rgatishdan iborat.

Agar boshlang'ich sinfda qoraqalpoq o'quvchilariga o'zbek tilidan umumiy bilimlar berilgan bo'lsa, 5-sinfdan boshlab tilning har bir sathi alohida-alohida bo'lim sifatida o'rganiladi. Ta'limning bu bosqichida quyidagi zaruriy amaliy malakalarni tarkib toptirish ko'zda tutiladi:

1. Nutqiy kommunikativ malakalar. Nutqiy kommunikativ malakaning 4 ta turi bor: a) gapirish; b) nutqni tinglab tushunish; v) o'qish va uqish; g) yozish.

Gapirish malakasi ta'lim boshqa tilda olib boriladigan maktablarda, shu jumladan, qoraqalpoq maktablarida asosiy ko'rsatkich sanaladi. Chunki "O'zbek tili"ni o'quv fani sifatida o'qitishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad gapirish malakalarini tarkib toptirishdir. Boshlang'ich sinflarda ma'lum darajada tarkib topgan bu malakalar 5-



sinfga kelganda ancha takomillashadi. Agar boshlang'ich sinflarda o'quvchi faqat ko'rgan yoki ko'rayotgan narsalar, voqea-hodisalar xususida gapirsa, 5-sinfga kelganda u bevosita o'zi ko'rmagan, lekin eshitgan narsa-buyumlar, voqea -xodisalar xususida xam fikr yuritadi.

Tushunish o'qiganni uqish demakdir. Demak, tushunish o'qishning mahsulidir. Matn mazmunini tushunish bir necha omillar bilan chambarchas bog'langan. Chunonchi, o'quvchilarning o'zbekcha so'z zaxirasi, so'zlarni to'g'ri va o'rinli qo'llash, so'z ma'nodoshlari va ularning vazifadoshlari (qiymatdoshlari) singarilarni bilishlari bilan chambarchas bog'langan.

Tushunish malakasi dastlab boshlang'ich sinflarda tarkib toptirilsa, 5-sinfga etgach, nisbatan murakkabroq nazmiy va nasriy matnlar mazmunini anglash darajasiga etadi.

5-sinfda rivojlantirilishi zarur bo'lgan bu malakalar matn mazmuni asosida so'roq gaplar tuzishda, berilgan so'roqlarga javob berishda, matn mazmuni asosida reja tuzishda, uni o'z so'zlari bilan qayta hikoya qilishda namoyon bo'ladi.

Nutqiy kommunikativ malakalar o'qish va uqishni o'zaro chambarchas aloqadorlikda amalga oshirishni taqozo etadiki, shu asosda 5-sinf o'quvchilarining o'zbekcha matnlarni o'qishiga ham bir qator talablar qo'yiladi. Chunonchi, o'quvchilarning boshlang'ich sinflarda egallagan malakalari (o'zbekcha nutq tovushlarni (qarflar)ni to'g'ri talaffuz etish; gap ohangiga rioya qilib ravon o'qish; gaplardagi tinish belgilarni talaffuzda aks ettirish; murojaat so'zlarni va so'z birikmalarini ajratish ohangi bilan o'qish, so'z urg'ulariga rioya qilish, boshlang'ich sinf fanlari doirasidagi ilmiy atamalarni to'g'ri o'qish v.q.) takomillashadi va ayni vaqtda, 5-sinfda o'rganilishi ko'zda tutilgan materiallar hisobidan (ko'chirma va o'zlashtirma gaplarni to'g'ri o'qish, qo'shma gaplarning o'qilish ohangiga rioya qilish, 5-sinfning o'quv fanlari doirasidagi ilmiy atamalar (matematika, atrofimizdagi olam, musiqa, jismoniy tarbiya, rasm) bu malakalar takomillashib boradi.

1. Kommunikativ malakalarning eng oliy ko'rinishi matn yaratishdir. O'quvchi tomonidan yaratilgan o'zbekcha matn uning bu o'quv fanidan egallagan bilim, malaka va ko'nikmalarining eng so'nggi natijasidir. Zero, "O'zbek tili"ni o'quv fani sifatida o'qitishdan ko'zlanadigan asosiy maqsad mukammal matn tuzishga o'rgatishdir. Chunki yaratilgan matn orqali o'quvchilarning o'zbek tilini o'zlashtirganlik darajasini belgilash mumkin. O'zbek tili darslarida foydalaniladigan rasmlar, diopazitiv va o'quv filmlari, tabiatni va tevarak atrofni bevosita kuzatish natijasida olingan taassurotlar, shuningdek, ko'rgan, eshitgan, bilgan voqea-hodisalari o'quvchilar uchun matn yaratishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.



2. Grammatik bilim va malaka. 5-sinfda o'quvchilar sintaksis va punktuatsiya, talaffuz va imlo, so'z va uning ma'nolari xususida ayrim zaruriy ma'lumotlar bilan qurollantiriladi.

Sintaksis va punktuatsiyadan zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar sirasidan ixcham gap, kesim-gapning markazi, so'z birikmasi, uyushiq bo'laklar, undalma, ko'chirma va o'zlashtirma gap singarilar o'rin olgan.

"Talaffuz va imlo" maxsus bo'lim sifatida o'quvchilarni unli tovushlarning talaffuzi va imlosi, undosh tovushlarning talaffuzi va imlosi, bo'g'in, urg'u haqida zaruriy bilim, malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishni ko'zda tutadi.

5-sinfda "So'z va uning ma'nolari" aloqida bo'lim sifatida o'qitiladi. Mazkur bo'lim so'zning moddiy va ma'naviy tomoni, so'zning o'z va ko'chma ma'nosi, ma'nodosh so'zlar, uyadosh so'zlar, zid ma'noli so'zlar, shakldosh so'zlar, atamalar, mahalliy so'zlar, olinma so'zlar, tasviriy ifodalar singarilarni o'z ichiga qamrab oladi.

DTS talabiga ko'ra o'zbek tili ta'limi adabiy o'qish va milliy ma'naviyatga oid bir qator zaruriy malaka va ko'nikmalarni tarkib toptirishni ham talab etadi. Chunonchi, o'quvchilarni o'zbek va qoraqalpoq xalqlarining boy tarixi, milliy qadriyatlari, urf-odatlar va ularning o'ziga xos boy adabiy, badiiy merosi bilan tanishtirish, uni o'qib o'rganish, ular asosida har bir o'quvchiga milliy madaniyat an'analarni, shuningdek, umuminsoniy qadriyatlarni singdirishni, insonparvarlik his-tuyg'ularini kamol toptirishni taqozo etadi. (93,249)

O'zbek tili darslari orqali o'quvchilar o'zbek va qoraqalpoq adabiyotining eng go'zal namunalari, xalqning madaniy qayotiga xos muhim lavhalar, jahon milliy madaniyatiga hissa qo'shgan shoirlar, yozuvchilarning ijod namunalari bilan tanishtiriladi.

Xullas, 5-sinfda asosiy e'tibor nutqiy kommunikativ malakalarga qaratiladi. Grammatik bilim, malaka va ko'nikmalar esa nutqiy kommunikativ malakalarni rivojlantirishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergashev, N., & G'aniyeva, G. (2023). RESEARCH HYDRAULIC RESISTANCE OF WET CLEANING DEVICE OF DUST GASES. Scientific progress, 4(1), 358-368.
2. Abdugaffarovna, O. K., & Kurbanovna, N. T. (2022). FEATURES AND TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF DIALOGICAL GENRES IN JOURNALISM (IN THE EXAMPLE OF TV INTERVIEWS). Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(1), 142-151.
3. Тошпулатова, Н. К. (2022). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРАВОВЫХ И ЭТИЧЕСКИХ ОСНОВ ЖУРНАЛИСТСКОГО



РАССЛЕДОВАНИЯ. In Актуальные проблемы медиапространства: от теоретических аспектов до практической реализации (pp. 371-379).

4. Ташпулатова, Н. К. (2021). УЗБЕКСКАЯ ПУБЛИЦИСТИКА В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ 2020 ГОДА. In Media Landscape of Russia and the World: Past, Present, Future (pp. 592-598).
5. Jubatkhanova, S. S. (2023). RELATIONSHIP OF LANGUAGE AND CULTURE IN LINGUOCULTUROLOGY. Miasto Przyszłości, 35, 238-243.
6. Saklapbergenovna, P. G., & Mambetova, G. J. (2021). Morphological structure of ornonyms in the karakalpak language. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(11), 216-219.
7. Taubaevich, K. Z., & Abdigaziyevna, T. T. (2022). The Role Of William Shakespeare's Work In The Development Of European Literature. Journal of Positive School Psychology, 6(8), 299-304.
8. Mustafayev, S., & Kadyrov, K. A. (2022). The Educational Potential of Art and Its Realization in the Context of Globalization. International Journal on Integrated Education, 5(6), 218-222.
9. Bakhramovich, R. O., & Shokhjahan, M. (2022). Continuous Spiritual Education Is A Strong Foundation For The Establishment Of A Developed Generation. Journal of Pedagogical Inventions and Practices, 4, 118-123.

